

O‘ZBEKISTON INVESTITSIIYA SIYOSATI

Zokirjonova Maftuna Zokirjonovna

Diplomat University 1-kurs talabasi

ANNOTATSIIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati, uning asosiy yo‘nalishlari va so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Davlat investitsiya siyosatining maqsadi – mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o‘shish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat. O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, normativ-huquqiy baza takomillashuvi, xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar, soliqqa oid yengilliklar, shuningdek, investitsiyalar hajmi va sifati borasidagi natijalar statistik ma‘lumotlar asosida yoritilgan. Xususan, 2018-2024-yillar oralig‘ida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar, yirik investitsiya loyihalari, davlat-xususiy sheriklik tashabbuslari, xorijiy investorlarning ulushi va asosiy investitsiya yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro reytinglar va tashkilotlarning baholari orqali O‘zbekistonning global investitsiyaviy jozibadorligi ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning investitsiya siyosati barqaror rivojlanayotganini va bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. *Investitsiya siyosati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy o‘shish, investitsiya strategiyasi, muqobil energiya.*

ABSTRACT

This article analyzes the investment policy of the Republic of Uzbekistan, its main directions and development trends in recent years. The goal of the state investment policy is to achieve economic growth and structural reforms by attracting investments to the country's economy and implementing them effectively. The results of the reforms implemented in Uzbekistan to improve the investment climate, including the improvement of the regulatory and legal framework, favorable conditions created for foreign investors, tax breaks, as well as the volume and quality of investments, are highlighted based on statistical data. In particular, changes in the volume of foreign direct investment in 2018-2024, major investment projects, public-private partnership initiatives, the share of foreign investors and the main investment areas are considered. The article also analyzes the global investment attractiveness of Uzbekistan through international ratings and assessments of organizations. The

results of the study show that Uzbekistan's investment policy is developing steadily and that measures in this direction have a positive impact on economic growth.

Keywords: Investment policy, foreign direct investment, economic reforms, economic growth, investment strategy, alternative energy.

KIRISH

Investitsion siyosat – bu davlat moliyaviy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, ichki va xorijiy investitsiya resurslarini jalb qilish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish usullari va choralari majmui. Investitsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va uning alohida tarmoqlariga investitsiyalarning zarur darajasi va tarkibini ta‘minlash, investitsiya sub’yektlarining investitsion faolligini oshirish bo‘yicha investitsiyalar manbalarini izlashga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar majmui. Davlat investitsiya siyosatining maqsadi – investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishdir. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yaratish va takomillashtirish;

Ikkinchidan, Mamlakatda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish;

Uchinchidan, Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish;

To‘rtinchidan, Mahalliy aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya faolligini rag‘batlantirish;

Nihoyat, Investorlar huquqlarini himoya qilish va ularning majburiyatlarini bajarish, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish monitoringi. Investitsiya siyosatining asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya bozori va umumiy moliya sektorining boshqa tarkibiy qismlari - bank, sug'urta, valyuta va pul bozorini rivojlantirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi uch yil davomida valyuta bozorini liberallashtirish va investorlar uchun soliq imtiyozlari berilgan yettita maxsus iqtisodiy zona tashkil etish kabi islohotlar mamlakatni xalqaro miqyosda yanada jozibador manzilga aylantirdi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatini o‘rganishda xalqaro va mahalliy ilmiy, statistik, normativ-huquqiy hamda analitik manbalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada BMTning Osiyo va Tinch okeani Iqtisodiy va Ijtimoiy Komissiyasi (ESCAP), Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) hamda Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida investitsiya oqimlari, investitsiya muhiti va O‘zbekistonning reytinglardagi o‘rni o‘rganilgan. Xususan, “Biznes yuritish 2020” (Doing Business) hisobotida mamlakatning 69-o‘rinni egallagani va “global takomillashtiruvchilar” sifatida tan olingani O‘zbekiston investitsion jozibadorligining xalqaro miqyosda tan olinayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi investitsion siyosat bo‘yicha rasmiy siyosiy yondashuv va ustuvor yo‘nalishlarni tahlil qilish uchun muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Murojaatnomada keltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmidagi o‘shish, xalqaro kredit reytingining yaxshilanishi va maxsus iqtisodiy zonalar sonining oshirilishi mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarning natijadorligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining rasmiy ma’lumotlari asosida investitsiya hajmlari, sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilgan sarmoyalar va yillik o‘zgarishlar bo‘yicha tahlillar o‘tkazilgan. 2018-2024 yillardagi investitsiya oqimlari dinamikasi yoritilib, ularning iqtisodiy o‘shishdagi roli baholangan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiya siyosati bo‘yicha mavjud ilmiy va statistik manbalar O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi siyosatini har tomonlama yoritishga yordam beradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarning baholari va rasmiy davlat hujjatlaridagi tahliliy ma’lumotlar mamlakat investitsion muhitining jadal rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu sohada yanada chuqur tahlil va empirik tadqiqotlar o‘tkazish investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Metodologiya. Ushbu ilmiy maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish, investitsiyalarning hajmi va samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, xorijiy investitsiyalar oqimining dinamikasini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.


Tahlil va natijalar.

O‘zbekistonning investitsiya siyosati 2019-yilda tomonidan xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiya kompaniyalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlat moliya tashkilotlari rahbarlari va vakillariga investitsiya muhitini yaxshilash imkoniyati beruvchi Xorijiy Investorlar Kengashi tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Investitsiya oqimi sezilarli darajada oshdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 4,2 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar ko‘pdir. Yalpi ichki mahsulotdagi investitsiyalar ulushi 37 foizga yetdi. O‘zbekiston ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozoriga 1 milliard dollarlik obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. Mamlakatimizning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kredit tavakkalchilik reytingidagi o‘rni 10 yil ichida birinchi marta yaxshilandi”. O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi investitsiya siyosati va statistikasi quyidagicha ko‘rinish oldi:

2023-yilda O‘zbekistonga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2022-yilga nisbatan 16% ga kamaydi. Bu kamayish so‘nggi besh yilda faqat 2020-yilda, pandemiya davrida kuzatilgan edi. Bu kamayish BMTning Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi hisobotida qayd etilgan. 2025-yilda rejalashtirilgan investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotiga 43 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Bu orqali 300 dan ortiq yirik loyiha amalga oshirilishi va 662 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonning investitsiya siyosatida so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rsatadi. 2023-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning kamayishi kuzatilgan bo‘lsa, 2024-yilda ayrim davrlarda o‘sish, ayrim davrlarda esa pasayish kuzatildi. 2025-yil uchun esa yirik investitsiya loyihalari rejalashtirilgan. O‘zbekistonning investitsiya siyosati 2019-yil xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiya kompaniyalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlat moliya tashkilotlari rahbarlari va vakillariga investitsiya muhitini yaxshilash imkoniyati beruvchi Xorijiy Investorlar Kengashi tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Investitsiya oqimi sezilarli darajada oshdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 4,2 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar ko‘pdir.




**1-rasm. O‘zbekistonning 2017-2024-yilgacha yillik investitsiya hajmi,
milliard dollar¹**

Yalpi mahsulotdagi investitsiyalar ulushi 37 foizga yetdi. O‘zbekiston ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozoriga 1 milliard dollarlik obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. Mamlakatimizning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kredit tavakkalchilik reytingidagi o‘rni 10 yil ichida birinchi marta yaxshilandi”.

2024-yilda investitsiyalar hajmining kamayishi BMTning Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP) hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 49% ga kamayib, 4 milliard dollarni tashkil etdi.

Investitsiyalarning sifati va samaradorligi sifatida har bir dollar sanoatni rivojlantirishi, yangi ish o‘rni yaratishi kerak. 2024-yilning so‘ngida 26 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya kiritilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan 1,7 barobar ko‘pdir. Yirik investitsiya loyihalari va davlat-xususiy sheriklik 2024-yilda o‘tkazilgan hisobot yig‘ilishda ma’lum qilinishicha, so‘nggi yetti yilda O‘zbekistonga jami 78 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan. Shuningdek, 2024-yilda 23,7 milliard dollarlik xorijiy investitsiya kirib kelgan. Bu orqali 1800 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarila boshlangan, 120 ta yirik quvvat ishga tushgan. Investitsiya loyihalari doirasida yiliga 15 milliard dollarlik uskuna, xomashyo va qurilish materiallari olib kelinmoqda.

¹ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. 2023-yilda O‘zbekistonda o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar, % da²

Xorijiy investorlar va yetakchi mamlakatlar 2023-yilda O‘zbekistonda o‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida Xitoy 24,5%, Rossiya esa 15,9% ulushga ega bo‘ldi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni – 7%, Turkiya – 6%, Kipr – 4,1%, BAA – 3,7%, Germaniya – 3,5%, AQSh – 3,3%, Shveysariya – 3,4% va Singapur – 2,2% ulushga ega bo‘ldi. Sanoat tarmoqlarida investitsiyalarning taqsimlanishi 2024-yil yanvar–sentabr oylarida O‘zbekistonda ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o‘zlashtirilib, 81,5 trillion so‘mni yoki jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 35% ini tashkil etdi.

O‘zbekiston dengizga chiqa olmagan, boy tabiiy resurslarga ega, Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi strategik joylashuvga ega davlatdir O‘zbekistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2018-yildagi qariyb 1,6 milliard dollardan 2019-yilda 4,2 milliard dollargacha o‘tdi. Ushu o‘rish ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston yetakchi 20 ta davlatdan biri deb topildi. Jahon bankining 2020-yilgi biznes yuritish hisobotida “global takomillashtiruvchilar” va The Economist jurnali tomonidan 2019-yilning eng yaxshi mamlakati mukofotiga sazovor bo‘ldi. O‘zbekistonning rasmiy statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda kapital qo‘yilmalarning umumiy hajmi 21,5 milliard dollardan oshdi. Moliyalashtirish manbalariga 4,2 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va 5,6 milliard dollar xorijiy kreditlar kiradi. Sanoatning asosiy tarmoqlariga tog‘-kon, neft va gaz qazib olish, elektr energiyasi ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi,

² <https://stat.uz/uz/> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

to'qimachilik, transport, metallurgiya, nometall nominal ishlab chiqarish va kimyo ishlab chiqarish kabilar kiradi.

Taklif va xulosalar. UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) ning 2020-yilgi Jahon Investitsiya Hisobotiga ko'ra, 2018-yilda 625 million AQSh dollariga teng bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi 2019 yilda sezilarli darajada oshib, 2,3 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. 2019 yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy zaxirasi 9,5 milliard dollarni tashkil etdi. Xorijiy to'g'ridan to'g'ri Investitsiyalar har doimgidek Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Germaniyadan kirib keladi, shuningdek Kanada ham yaqindan boshlab mamlakatga moliyaviy resurlari hajmini oshirdi. Investitsiyalar energetika sohasiga, jumladan, so'nggi yillarda muqobil energiya manbalariga qaratilgan. O'zbekiston Jahon bankining "Biznes yuritish 2020" reytingida o'tgan yildagi kabi 69-o'rinni egalladi. Mamlakat uchta va undan ortiq "Biznes yuritish" so'rovlarida eng yaxshi natijalarga erishishda katta imkoniyatlarga ega.

O'zbekistondagi keng ko'lamli xususiylashtirish reformalaridan bir qismi sifatida Hukumat to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, xususan, bank, elektr energiyasi, neft va gaz, ishlab chiqarish, telekommunikatsiya, transport va qishloq xo'jaligi kabi muayyan tarmoqlarni rag'batlantirishga harakat qilmoqda.

O'zbekiston hukumati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'zining asosiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi, iqtisodiy o'sish uchun xususiy sektor ishtirokini oshirish muhim ekanligini tan oldi va ishsizlikning sezilarli darajada oshishi va qashshoqlik darajasi bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni ta'kidladi.

Ko'proq xorijiy investorlarni jalb qilish uchun hukumat kirish vizasi tartiblarini soddalashtirdi va chet elliklarning yashash uchun ruxsatnomalarini kengaytirdi. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qariyb ikki baravar kamaytirdi va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq solish tartiblarini sezilarli darajada soddalashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov T., Raximov A. – *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*, O'zMU, 2022
2. Vohidov A. – *Investitsiyalar iqtisodiyoti*, TDIU, 2021
3. To'raev B. – *Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nazariyasi va amaliyoti*, TDIU, 2020
4. Sharipova M. – "O'zbekistonda investitsion muhit va uning rivojlanish istiqbollari", *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, 2023

5. Sultonov S. – “Xorijiy investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari”, *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2022
6. Jo‘rayev F. – “O‘zbekistonning investitsiya siyosatidagi yangi yondashuvlar”, *Strategy.uz* maqolasi
7. **World Bank (WB)** – *Doing Business in Uzbekistan*, yillik hisobotlar
8. **UNCTAD** – *World Investment Report* (har yili) – unctad.org
9. **OECD** – *Investment Policy Reviews: Uzbekistan*, 2024
10. **IMF Country Reports** – Uzbekistan iqtisodiy sharhlari